

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11582248>

**Parda Alimov**

*TerDPI, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori*

**Annotatsiya:** *Har bir ijodkorning shaxsiy hayoti, yashagan muhiti, ruhiy psixologik holati, shaxsiy qiziqishlari, asarni yozishga turki bo'lgan ilhom omillari ijsiodiy laboratoriyaga bo'lgan alohida e'tibor muhimdir, shuni alohida ta'kidlash joizdir. Zotan ijodkorning shaxsiyati, hayotdagi o'rni, oilasiga munosabati alohida ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so'zlar:** *Har bir ijodkor o'ziga hos turfa olamga ega. Yozuvchi hech birini ijodda aynan takrorlanmaydi, tahlid haqida gap bo'lishi ham mumkin emas. Ijodning kushandasni takrordir. A.Qodiriy, A.Cho'pon, A.Fitrat, Oybek, G'afur G'ulom, H.Olimjon, Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov, Halima Xudoyberdieva, A.Muhtor, R.Parfi, Sh.Raxmon o'ziga hos serjilva, sira takrorlanmaydigan, adabiyotda o'z yo'lliga, uslubiga ega bo'lgan ijodkorlar sarasiga kiradi. Shuni qayd etish keraki, yozuvchini bir misra bo'lsa ham badiiy zaif asar yozishga haqi yo'q.*

To'g'ri yuqorida nomi zikr qilingan adiblarda ham sa'yoz asarlari bo'lishi tabiiy hol. Ba'zan maqtovga berilib zaif asarlarni unutib ko'yamiz. G'afur G'ulom yoki ayrim atoqli adiblar ijodidagi yuzaki g'oyaviy asarlarni tilga olmaymiz. Nihoyat G'.G'ulomning nazmdagi ijodi emas, prozadagi ijodiy ustunligi sezilib qoldi. Yirik adabiyotshunos olim S.Melievning tadqiqotlari bunga misoldir.

Adabiyotshunoslikda shunday hukm bor, nomi ulug' sa'natkor doimo yaxshi asar yaratadi. Andishaga borib ana shu buyuklar haqida gapirishga isteholaga bordik. Lekin adabiyot xalq mulki. Baribir atoqli adib yosh yozuvchi bo'ladimi, uning shaxsiga emas, asarini baholash vaqt vaqqi allaqachon yetgan. Ko'plab romanlar yozib adabiyot xazinasini to'ldirgan H.G'ulom, I.Rahim, Said Nazar, Mirmuhsin asarlari o'zbek adabiyotiga nima berdi degan savolni tarix qa'riga ko'mib qo'ydik. Oqibatda bo'sh badiiy romanlar yozilishda davom etmoqda. Tanqid esa sukutda. A.Qahhorning o'zbek adabiyoti kelajakda buyuk adabiyot bo'ladi degan mashxur so'zini unutib yubordik. Menimcha, atoqli yozuvchi faqat sara asar yozadi degan fikrdan voz kechish vaqt keldi. Maktab adabiyot dasturi hamon sinovda. Adabiyot dasturini tuzishda bir xil mualliflar qatnashib kelishmoqda. Darslik mualliflariga yozuvchining shaxsiyati, o'zaro tanishligi ustunlik qiladi. Mukammal darslik yaratish vaqt yetmadi-mi?

Ta'lat Solixovning fikricha, har bir san'atkorning o'z mamlakati va shu mamlakatda yashaydigan, istiqomat qiladigan o'z fuqarolari bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, adabiyotimizdagi asosiy nazariy qoidalar, uni baholash mezonlari rus adabiyotshunosligidan o'tgan. Ko'proq V.G.Belinskiyning nazariy qoidalarini asos qilib

olganmiz, ya’ni Baxtinning nazariy fikrlariga tayanamiz. Gegelning tamoyillarini unutib qo’yib, uning “Estetika” asari borligini bilmaymiz.

O’zbek nasri, poeziysi, dramaturgiyani nazariy poetikasini yaratish vaqtি keldi. Bunga yirik adabiyotshunoslar A.Rasulovning “Taqnid, talqin baholash” hamda U.Jo’raqulovning “Nazariy poetika masalalari” kabi ilmiy asarlari kifoya qiladi, holos.

U.Jo’raqulov har bir asarni poetik xronotop usulda o’rganishni taklif etadi. Yozuvchining shaxsi va badiiy asari juftlikni tashkil etadi. Demak, yozuvchining ijod yo’li, asarlaridan muhim fikrlarga tayanib, jahon adabiyotshunoslige oid fikrlarni berishga jazm etdik.

Yuriy Boryov badiiy asarni yozuvchi shaxsi orqali o’qish deb ta’riflab fikrini davom ettiradi: “San’atkorning individual taqdiri bilan ijodini talqin etishda kalit vazifasini o’taydi”. Fransuz adibi Viktor Gyugo ijodkorning shaxsiyati bilan asarni birga tekshirishni taklif etadi. Fransuz tanqidchisi va shoiri Sharl Ogyusten Sent-Byov yuqorida fikrga qo’shiladi. U shunday yozadi “mashhur yozuvchilarning biografiyasini o’rganish o’ziga jalb etib keldi”.

L.Tolstoyning xayot yo’li qiziqlaridir. Uning ijodkorga hos fazilatlarini anglab yetish qiyin. Adibning ijodkor sifatida fazilati bilan unga rus podshosining o’zi qiziqqan. Uning xotini Sofiya Andreevna bilan munosabatlari ancha bahslidir. U yon atrofdagi yaqinlaridan asarda prototip sifatida foydalangan. Fitratning shahsiyati uchun xotira, kitoblar, kundaliklar, kundalik matbuot nashrlari muhimdir.

Sh.O.Sent Byovdan keyin mashhur kishilar biografiyasini yozishni Aydre Marua davom ettirdi. U romanlashtirilgan biografiyani yanada rivojlantirdi. Shekspir, Balzak va L.Tolstoyni isoniyatning eng buyuk uch yodgorligi deb atadi. Uning uchun eng muhimi: inson, hayoti va keyin ijodi. Onare de Balzakning asarlarida o’z hayotini aks ettiradi. Uning uchun muqaddas shaxs Napoleon bo’lgan. Kitob javonining yuqori qismida yarim metrcha keladigan Napoleonning gips figurasi quyilgan qog’ozda “U qilich bilan boshlagan ishni qalam bilan ohirigacha yetkazish kerakdir. Onare de Balzak degan qog’oz yopishtirilgan”.

Dunyo adabiyotida ijodkorlarning kotiblari tomonidan yozilgan asar sifatida logan Petor Ekkerman “Gyote haqida suhbatlari” ni ko’rish mumkin. L.Tolstoyning “Iqrornoma” asari adibning o’z e’tirofi sifatida ma’lumdir. A.Chexov, L.Tolstoy yonida kotibi bo’limgani uchun ularning fikrlari havoga uchganidan afsuslanadi.

Keyingi vaqtida o’zbek olimlari ham yozuvchining hayot yo’li, shahsiyatini o’rganishga qiziqishmoqda. A.Rasulov yozuvchining ruxiyat bilan ijodi bog’liqligi haqida shunday yozadi “Badiiy asar talqin-taxlil qilinganda, tabiiyki, yozuvchining ruhiy holati, kayfiyati hisobga olinadi”.

A.Qahhorning “O’tmishdan ertaklar”, Oybekning “Bolalik”, G’.G’ulomning “Shum bola”, Said Ahmadning qamoqxonada yozgan asarlarida o’zlarining hayotiy kechmishini, ruhiy holatlarini berishgan. Ushbu holatni I.Sultonning “Navoiyning qalb daftari”, N.Karimovning “Cho’lpon”, “Maqsud Shayxzoda”, D.Qurbanovning “Cho’lpon hayoti va ijodiy metodi” kabi kitoblarida ham ko’rish mumkin.

Abdulla Qodiriy fikricha, yozuvchining shaxsan tanimasa ham uning asarlaridan qanday odam ekanligini bilish mumkin, chunki adib o'z ruhiyatini tasvirlaydi.

Badiiy asarda ijodkor shaxsiyati bir butun holda shakllanadi. Ma'lum bir qoida mavjud (Gyote). Muallifning shaxsiy iqrorlari va e'tiroflaridan holi bo'lgan biror narsani topish qiyin. Buning uchun tanqidchi iqrornoma va kundalikka murojaat qilishi shart emas. Asarda yozuvchi fantaziya va badiiy to'qima bilan ish ko'radi. Shu holat ba'zan tadqiqotchini aldaydi.

Abdulla Qodiriyning shaxsiyatini, dunyoqarashini uning asarlaridan izlash muhimdir. Yusufbek xoji, Otabek, Anvar, Kumush, Ra'no obrazlaridagi xususiyatlari Abdulla Qodiriy ichki ruhiy olamiga tegishlidir. Abdulla Qodiriy "Artist bo'lganimda edi, Otabek rolida o'zim o'ynardim". Abdulla Qodiriyning bir qator insoniy fazilatlari Anvar obrazida mujassam ettirilgan. "Menlik" obrazida yozuvchi mendan tashqariga chiqa olmay o'z dardi, ichki dunyosini aks etiradi. Abdulla Oripovning "Otello", "Alisher Navoiy", "Alloma" she'rlarida yuragida doimo "yashab yurgan" tuyg'ularini aksi namoyon etadi.

Ijodkor biografiyasi-hayotiy voqealari majmuasi emas, balki shoir yuragida hamroh bo'lgan tuyg'u, his-xayajonning asosiy manbasi sifatida e'tirof etiladi. Zero, shoir ijodini o'rganish jarayonida uning tarjimai holi ham muhimdir. Bu narsa badiiy asar yaratilishiga ilk turtki bo'lgan, voqealar silsilasini o'rganish, uning zaminida yotgan sirli ma'naviy qatlamlarni ochishga kalit bo'llib xizmat qiladi. Bizningcha shior tarjimai holini o'rganish, uning asarlariga manba bo'lgan hayotiy voqealarni qayta qalb qo'ridan o'tkazish, chuqurroq tushunish uchun vositadir. Buni biz yuqorida jahon adabiyotshunosligi va ayrim yozuvchilar ijodida ko'rib chiqdik. Demak, badiiy asar va yozuvchining xayoti uzviy aloqadadir.

Muhammad Yusuf katta iste'dod egasi bo'lgani uchun kuchli shaxsiyat sohibi hamdir. Shoir shaxsiyatini shakllanishida bolalikning beg'ubor damlari, uning qaytarilmas onlari, o'smirlik xotiralari u o'sgan ona qishloq, Toshkentdagi adabiy muhit, ustozlarning ibratli naqllari, ozodlikning bir umr katta ahamiyat kasb etadi. Uning ba'zi she'rlarida muallif shahsi bilan lirik qahramon yakdillashib ketgan.

Shoirning ilhom manbayi bo'lgan xayot manzaralari: ta'rifiga so'z ojiz Vatan, ardoqli muhabbat, bag'ri, ko'zi qon jayron, kiyik so'qmoq she'riyat, qiyosi yo'q jannat maskan – Farg'ona, buloq boshida yig'lagan qiz, g'arib, parvonasi yo'q qizg'aldoq, baland shohdag'i qizil olma, odamlardan mehribon kapalak, orzulari sarobga aylangan kelinchak, ruhi notanish zot, hayron qoldirgan aldov, tanish, lekin kesilgan terak, paxtazorda belanchagi chayqalgan chaqaloq...

Muhammad Yusufning "Yangi yil kechasi", "Xalq bo'l, elim", "Vatanim", "Mehr qolur", "Oqibat", "Navoiy", "Sumalak" kabi qator she'rlarida lirik qaxramon kayfiyati tug'iladi.

"Shoir sevgisi", "She'riyat, ey...", "Onamga xat", "Maktub", "Tuzalmaydi dardim" kabi she'rlarida ko'proq "lirik men" ustunlik qiladi, shoir yuksak tuyg'ularini kuylabgina qolmadni, balki o'zidan kechib ularga aylanib qoladi.

Qishloqqa ketaman

Tong otsa bo'ldi.

Quyosh, uyg'otib qo'y meni ertalab...

Tannozlarning baland poshnali etiklaridan bezor shoir tongni kutadi. Tong esa umidvorlik, bezovta yurakning umidlari, najot va ertangi kunning osayishtaligiga ishoradir.

She'riyat bu qadim buyuk,

So'qmoq ekan.

Kiyik so'qmoq ekan...

Shoirning nazarida she'riyat shirin azob, jonne yoqmoq, o'ta olmaydigan so'qmoq, lekin chaqirtoshlar-she'riyat g'animgani, qo'llarida kiyiklarni, she'riyatni ushlab olgan, she'r dardida yongan shoir shuning uchun istirob chekadi. Bu esa hamma zamonlar hasrati, nolasidir.

G'arib demang shoirni, g'arib,

Yetti ko'kka uchishi mumkin.

Yetti qavat yerni ag'darib,

So'zni-qizdek quchishi mumkin.

Bu o'rinda badiiy detal shoir so'zni qizdek quchishi mumkin degan obrazli ifoda, so'zga bo'lgan ma'suliyatini, shoirlik burchini qanday anglashini ko'rsatib turadi.

"Muhammad Yusuf pokiza inson edi. U odamlarni esini og'dirgan, o'ylatgan, kuldirgan, yig'latgan, topgan-tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi" deb yozgan edi O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Halq yozuvchisi Said Ahmad o'z hotiralarida. Ha, nomdor yozuvchining so'zlarida asl xaqiqiat Muhammad Yusufning haqiqiy insoniy qiyofasi aks etgan.

Odatda biz mashhur yozuvchilar haqida ularning rafiqalari yozgan kitoblarni bilamiz. F.Dostoevskiy haqida uning rafiqasi Anna Grigorevna Dostoevskayaning "Xotiralar", Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek haqida uning rafiqasi Zarifa Saidnosirovaning "Oybegim mening", A.Qahhor haqida uning rafiqasi Kibriyo Qahhorova yozgan. "Chorak asr hamnafas" yodnomalarida atoqli adiblar ijodi sir-asrорлари hamda insoniy va ijodiy qiyofalari haqida yetarli ma'lumotlar beriladi.

Ijodkorning shaxsiy va ijodiy qiyofasi muhim ahamiyatga ega. Bog'bon o'z bog'i bilan fikr qiladi (Ch.Aymatov). Yozuvchining asarlari hayotining ma'lum qismidir. Haqiqatni tan olish kerak: shahsiyatni g'arib ijodkorning ijodiy qiyofasi yuksak cho'qqisiga chiqa olmaydi. Muhammad Yusuf ijodida ana shu sintezni ko'rish mumkin. U pokiza inson. Millat qiyofasini ulug'lovna mohir qalam sohibidir. Bizningcha, hech bir yozuvchini ijodda, shaxsiy qiyofada bir-biridan ustun qo'yib bo'lmaydi.

Har bir adib o'zicha, ya'ni ijod yo'li bilan ulug'dir. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Halq shoiri A.Oripovning Muhammad Yusuf haqida xotiralari shoir insoniy qiyofasini, ijodini yanada chucherroq anglashga yordam beradi. "Chinakam shoirning qalbida sohir qush doimo sayrab turadi degan gapni ko'p bora eshitgandim. O'sha qush aynan Muhammadning yuragida oshiyon qurbaniga men astoydil ishonganman... Muhammad

Yusuf qisqa umr kechirdi. Undan chinakam betakror ijodiy meros qoldi. Haqiqiy ma'noda barhayotlik, zavol bilmaslik Muhammad Yusuf ijodiga taalluqli..."

Xalq shoiri Erkin Voxidov hotirlashicha, Muhammad Yusuf tug'ma iste'dod sohibi edi. Dastlabki paytlarda u Muhammad Yusupov nomi bilan ijod qildi. Keyinroq esa Maqsad Yaxshiev, nihoyat Muhammad Yusuf nomi bilan elga tanildi. G'aybulla as-Salomga degan zabardast olimga kuyov emas, o'g'il bo'ldi.

Ko'ringanni duolar,  
 Qilar bizga momalar.  
 G'animga ham omonlik,  
 Tilar edi momalar.  
 Momalar har joyda bor,  
 Bizda bori qayda bor?  
 Bizning bo'ston qayda bor,  
 Shohimardon qayda bor,  
 So'lim Surxon qayda bor,  
 Samarqand non qayda bor-a,  
 O'zbekiston qayda bor?

Shoirning bu satrlaridan benihoyat ta'sirlangan Xalq shoirasi X.Xudoyberdieva elga, yurtga muhabbatini sodda va suyukli aytishni, Vatanni, yorni sevishni, ardoqlashni, asrashni Muhammad Yusufdan o'rganganini mubolag'asiz e'tirof etadi. Shoiraning ta'kidlashicha, g'amdiyalik-bizga bobo meros.

Shoirning elga tanilishida iste'dodli shoira, rafiqasi Nazira as-Salomning xizmatlari beqiyosdir.

Bekatlarda men qolarman-da,  
 Aytar so'zim qolib ketadi.  
 Tramvaylar seni har kuni  
 Bodomzorga olib ketadi.

Bu rafiqasiga shoirning atab yozilgan ilk misralaridir. Lekin shoir bekatlarda qolmadı, aytar so'zini aytdi, biroq umrining yarmida Tangrig'ot orqasiga ketdi. Uning "Biz baxtli bo'lamic", "Turkman qiz", "Rafiqamga", "Iqror" she'rlarida ayol ruhiyati, rafiqasiga dil izhori, ba'zan mag'zun va ma'yus kayfiyatining ifodasini topdi. Shoirning rafiqasi uning "Iqror" she'rini bisotidagi katta mulk deb bilgan:

Eslasak arzirli xush damimiz bor,  
 Garchi men bilan hech yo'qday ishlaring,  
 Men haqdadir hatto ko'rigan tushlaring,  
 Sevdim demasang ham sevgi izhori,  
 Ko'zingi to'la jilmayishlaring,  
 Mehr sadoqati siymi zar sanam,  
 Munglig'im, munisim, mushtiparginam...

Shoiring qizlari Ma'suda, Nozima, Madinaxonlarga alohida mehr qo'yan. Rafiqasining eslashicha, iloji boricha ularni cho'ntagiga solib yurguday edi. Ha, Muhammad Yusuf shoirgina emas sodiq, samimiyy muhabbat egasi, qizlarning sevimli otasi edi. Shoир otalik baxtini shunday his qiladi:

Mana qanday ekan otalik bahti,  
Turibman gullarim bilan panada...  
...Oynadan termulib soching silayman,  
Yuzingdan o'paman dokadek oppoq.  
Keyin jim ketaman ismlar izlab,  
Taqdiringni o'ylar yo'qdir oromim,  
Mayli o'g'ilmsan, qizmi baribir,  
Yulduzing yorug'mi mening davomim...

Yozuvlik tufayli hayotdan erta ketgan buyuk shoir M.Lermontov haqida rus tanqidchisi N.Chernishevskiy shunday degan edi: "Men ham foydali odamga o'hshayman. Lekin men o'lay edi, shu yigitdan ko'ra. Rus halqi uning qiyofasida eng zo'r himoyachini yo'qotdi". Ha, Muhammad Yusuf shaxsiy fazilatlari va asarlari bilan millat qiyofasiga aylandi. Uning asarlari o'zlikni anglashga, milliy iftixor tuyg'ularini ulug'lashga, ezgulik fazilatlarini kamol topishida xizmat qilaveradi.

Hayotini she'rga burkagan shoirning xotirasi qalbimizdag'i haykaldir.

Bir arsloni o'tdi o'zbekning,  
Ohu ko'kkasida o'zbekning,  
Quyosh yig'la, osmon aza tut,  
Muhammadi ketdi O'zbekning.  
Baladn ketdi, shoniga ketdi,  
Jannatning ayvoniga ketdi...

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdurakhmanov F., Mamajonov S. Uzbek language and literature. - T.; 2003.
2. Azamkhujaev S. Autonomy of Turkestan. - T.; 2003.
3. Мухаммад Юсуф. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 128.
4. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. PEDAGOVS, 57(1), 132–138.
5. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 676–680.
6. 10. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(10), 168–170.
7. Avriddinov Jobir Musulmon o'g'li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO'DAKIYNING SHE'RIYATI VA TILI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR. PEDAGOVS, 57(1), 143–146.

8. Sahkiba Saidmuradova, & To'lqinova Madina. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. PEDAGOGS, 57(1), 147–152.
9. Parda Alimov. (2023). Muhammad Yusuf ijodida Vatan, ona, muhabbat mavzularining badiiy talqini. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(1), 63–75.
10. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO'Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. Scientific Impulse, 1(4), 34–37.
11. Qurbanova Gavhar Xurramovna, & Avazova Dilfuza. (2024). ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA O'XSHATISHLAR. PEDAGOGS, 57(1), 158–160.
12. Nigora Jo'ranazarova Qurbanboy qizi, & Qahhorova Dinora Shuhrat qizi. (2024). XUDOYBERDI TO'XTABOYEV ASARLARIDA O'XSHATISH VA METAFORANING KONTEKSLARDAGI O'RNI. PEDAGOGS, 57(1), 161–167.
13. Nodira Hamidova. (2024). G'AFUR G'ULOM HIKOYALARIDA SO'Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. PEDAGOGS, 57(1), 139–142.